

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4



No 2

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

## Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

## Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 598 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 29-fevralda ruxsat etildi.

## Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

## Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi  
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi  
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri  
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari  
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati  
Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori  
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori  
Abduraxmanova Gulnora Kalendarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori  
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor  
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori  
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori  
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori  
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori  
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, f.f.d., TDIU professori  
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori  
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor  
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori  
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori  
Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori  
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari  
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi  
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti  
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti  
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti  
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti  
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi  
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i  
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

## Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti  
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti  
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti  
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



# MUNDARIJA

Ilm-fanga baxshida umr ..... <b>Baxtiyor Islamov</b>	8
Kichik biznesni rivojlantirishda “yashil” iqtisodiyotni keng tatbiq qilishning ahamiyati ..... <b>Gulnora Abdurahmonova Kalandarovna, Sanjar Baxodirovich G’oipnazarov</b>	10
Brand Capital as a Determinant of Institutional Prestige and Student Choice in the Higher Education System ... <b>Zufarova Nozima Gulamiddinovna</b>	16
Inson va atrof-muhit dialektikasi: nomutanosiblik ko’rsatkichlari va ekologik muammolar ..... <b>Butaboyev Maxammadjon Tuychiyevich, Maxmudov Nosir Maxmudovich</b>	24
Yashil budjetlashtirish va uni O‘zbekistonda joriy etish istiqbollari ..... <b>Meylev Obid Raxmatullayevich, Gofurova Kamola Xayrulla qizi</b>	30
Iqtisodiyotda ta’lim va fan integratsiyasining asosiy yo’nalishlari ..... <b>Yormatov Ilmidin Toshmatovich</b>	35
Transport vositalari va yo’llar turizm transport infratuzilmasini rivojlantirishning muhim omilidir ..... <b>Agzamov Shaxboz Akmalovich</b>	39
Bank xizmatlarini raqamlashtirish orqali samaradorligini oshirish ..... <b>A. X. Salamov</b>	44
Biznes-reja baliqchilik xo’jaligi rivojlanishi uchun asos sifatida ..... <b>Dosmurotova Shaxista Kengashovna</b>	48
Mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va uning lizing munosabatlari rivojlanishi bilan bog’liqligi ..... <b>Axmediyeva Aliya Toxtarovna</b>	55
Turizmni rivojlantirish imkoniyatlari ..... <b>Ziyadullayev Ilhom Narkabilovich</b>	63
Tijorat banklari depozit operatsiyalari samaradorligini oshirish muammolari va ularni bartaraf etish yo’llari ..... <b>Shamsiyev Nodir Muratovich</b>	67
Hududlarni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish masalalari ..... <b>Shagazatov Oybek bahodirovich</b>	72
Hududlar biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarish yo’nalishlari ..... <b>Davlatov Sanjar Abdimannonovich</b>	76
Ijtimoiy rivojlanish xulq-atvor paradigmasida yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning nazariy asoslari ..... <b>Mirzatov Baxtiyor Toxirovich</b>	80
Korxonalar innovatsion faoliyatida raqamli transformatsiyaning muhim yo’nalishlari ..... <b>Yuldasheva Kamola Miraliyevna</b>	84
O‘zbekistonda agroturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida) ..... <b>Yoriyeva Farangiz Murodillayevna</b>	89
Innovatsion tadbirkorlik muhitini kompleks baholashda xalqaro tashkilotlar tajribasi ..... <b>Nazarova Umida Avazovna</b>	94
Turizm faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini oshirishning ayrim usullari ..... <b>Mirzaxodjayev Alisher Botirovich</b>	98
Globalashuv sharoitida transchegaraviy suv resurslardan samarali foydalanishni boshqirish ..... <b>Mirzayev Musurmon Umidullayevich</b>	103
Surxondaro viloyati iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlikning o’rni va ahamiyati ..... <b>Fayziyeva Aziza Azamat qizi</b>	108
Ta’lim muassasalarida xarajatlarni moliyaviy nazorat etishning samaradorligi tahlili ..... <b>Eshonqulov Davlatjon Rajabboyevich</b>	113
Ta’minot zanjirini boshqarishda transport logistikasi usullarini takomillashtirish ..... <b>Zoxidova Nazokat Berdimurot qizi</b>	119
Blokcheyn texnologiyasida xavfsizlik masalalari ..... <b>Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich</b>	123
Развитие цифровой трансформации банковского сектора Республики Узбекистан ..... <b>Абдурахманова Матлуба Махамдаминовна</b>	129



Asosiy fondlarni hisoblash va baholash usullarini takomillashtirish istiqbollari.....	135
<b>Rixsimbayev Odiljon Qobiljonovich</b>	
Marketingda tovar harakati tizimini optimallashtirish va modellashtirish .....	141
<b>Sherzod Xolmurodovich Pardayev, Kamola Abdujabborovna Pardayeva</b>	
Iqtisodiy rivojlanish uchun strategik taqsimlash strategiyalari: Investitsion Fond Portfellarning qiyosiy tahlili.....	148
<b>Sultonboeva Munira bahodirovna</b>	
Soliq munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati: ilmiy-nazariy qarashlar.....	154
<b>Axrorov Zarif Oripovich, Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li</b>	
Взаимосвязь инвестиционной стратегии с оценкой эффективности инвестиционного проекта .....	159
<b>С. С. Алиева, А. Назаров</b>	
Erkin iqtisodiy zonalarning faoliyati va boshqaruv mexanizmini takomillashtirish.....	167
<b>Sheraliyeva Saida Azatovna</b>	
Xizmat safari xarajatlari hisobining huquqiy asoslari .....	170
<b>Ergashev Sarvar Xudoynazarovich</b>	
Инклюзивное образование и его особенности.....	175
<b>Зайнутдинова Умида Джалоловна</b>	
Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash va undirish samaradorligini oshirish yo'llari.....	179
<b>Qurbonov Muxiddin Abdullayevich</b>	
Mamlakatda soliq qarzdorligi vujudga kelishining asosiy sabablari va ularni qisqartirish yo'llari.....	184
<b>Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li</b>	
Mulk qiymatini baholash tushunchasi, baholash obyektlari, baholanadigan qiymat turlari.....	188
<b>Izbosarov Boburjon Bahriddinovich, Yoqubboyev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li</b>	
O'zbekistonda sug'urta xizmatlarining zamonaviy transformatsiyasi.....	193
<b>G. Adilova</b>	
Biznes subyektlarida samaradorlik masalalarini o'yinlar nazariyasi usuli bilan baholash.....	197
<b>Mardiyev Nurali</b>	
Yengil sanoatda "lean production" konsepsiyasini tatbiq etishning amaliy jihatlar.....	203
<b>Yaxyayeva Inobat Karimovna</b>	
Soliq salohiyatini baholash usullari va ularning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'siri tahlili .....	207
<b>Borotov Sharofiddin Jumaqul o'g'li</b>	
Ko'chmas mulk bozorini baholashning institutsional asoslari .....	213
<b>Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich</b>	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.....	221
<b>Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna</b>	
O'zbekistonning bank-moliya tizimi hamda unda Islom moliyasi instrumentlarini jalb etishdagi joriy tendensiyalar .....	226
<b>Eshimov Alisher Dasmurodovich</b>	
Tashqi savdoda notarif usullarni qo'llashning iqtisodiy oqibatlarini aniqlash metodologiyasi (rivojlangan davlatlar tajribasi).....	234
<b>Norqobilov Akobir Iso o'g'li</b>	
Reklama xizmatlari va uning subyektlar samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari.....	240
<b>Rabbimov Elbek Abdulloyevich</b>	
Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish asoslari .....	245
<b>Imonqulov Nuriddin Qo'shmon o'g'li</b>	
Tijorat banklari biznes ekotizimini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	250
<b>Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li</b>	
Majburiy tibbiy sug'urtaning vujudga kelishi va o'ziga xos xususiyatlari.....	256
<b>Kenjayev Soxib Sayfiyevich</b>	
O'zbekiston Respublikasida zamonaviy soliq ma'murchiligini joriy etish orqali budjet-soliq siyosati samaradorligini yanada oshirish.....	260
<b>Yuldasheva Shaxnoza Xojiakbar qizi</b>	
Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida derivativlar bozorining roli .....	266
<b>Shokirov Mirkamol Mirolim o'g'li</b>	
Boshqaruv hisobida mas'uliyat markazlarini tashkil etish masalalari.....	274
<b>Sobirov Otabek Olimjonovich</b>	



Davlat moliyasini boshqarishda moliyaviy nazorat usullaridan samarali foydalanish yo'llari .....	277
<b>Kultayev Farxod Shavkatovich</b>	
Tijorat banklari foydasi va rentabilik ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar tahlilini takomillashtirish .....	281
<b>Normo'minov Temurbek Sheraliyevich</b>	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari aktivlar sifatini oshirish yo'llari .....	284
<b>To'ychiyev Otabek Shamshiyevich</b>	
Venchur kapitalining mohiyati va O'zbekistonda venchur tizimini rivojlantirishning institutsional asoslari.....	288
<b>Tadjibayeva Nigora Gulomjonovna</b>	
Innovatsiyalar: zamonaviy iqtisodiyot uchun innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash zarurati.....	293
<b>Malikova Dilrabo Muminovna, Tursunov Jahongir Ulug'bek o'g'li</b>	
Budjet daromadlarining shakllanishida egri soliqlarning ta'sirini ko'p omilli ekonometrik modellashtirishda tahlil qilish.....	297
<b>Abdunazarova Shahnoza Norqo'chqor qizi</b>	
Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion jozibadorlikni oshirish yo'llari .....	302
<b>Abdullayev Boburjon Akbaraliyevich</b>	
Barcha tadbirkorlik subyektlariga teng raqobat sharoitini yaratishda soliq imtiyozlarining o'rni .....	306
<b>Akbarov Akmalxon Akrom o'g'li</b>	
Hisob siyosati va unda biologik aktivlar hisobini yoritib berish tartibini takomillashtirish .....	310
<b>Mirzayeva Nargiza Batirovna</b>	
Talabalarning oilali bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarga iqtisodiy baholashda yangicha yondashuv.....	314
<b>O. U. Shomurodov, A. A. Suyarov, Z. U. Uroqov, J. S. Urazov, A. T. Ablahatov</b>	
Ways to Use the Experience of Foreign Countries in Creating a Beneficial Business Environment for Entrepreneurship And Improving Taxation .....	319
<b>Mukhlisa Ikramova</b>	
Aholi turmush darajasini oshirishda moliyaviy savodxonlikning o'rni va iqtisodiy rivojlanishga ta'siri .....	325
<b>Yusupov Muhammadali Soxib o'g'li, J.D. Xojiyev</b>	
Temir yo'l sanoat korxonalarida ijtimoiy-mehnat munosabatlarini boshqarish bo'yicha xorijiy tajriba.....	329
<b>Kadirova Sharofat Amonovna</b>	
Механизм внедрения аутсорсинговой деятельности в АО “Ўзтемирўйлийловчи” .....	332
<b>Н. Э. Кахарова</b>	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish investitsiyalarni jalb qilishda xorijiy mamlakatlar tajribasi .....	337
<b>Sharipov Bobur Anvar o'g'li</b>	
“STEKLOPLASTIK” MJCHning bozordagi strategik holatini tahlil qilish .....	342
<b>Musyeva Shoira Azimovna</b>	
Agrar sektorda ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishning nazariy masalalari .....	348
<b>M. Sh. Nazarova, Z. S. Kazakova</b>	
Methodological Foundations of Bank Lending and Classification of Factors Affecting the Features of Obtaining Loans.....	353
<b>Raxmanova Laylo bahodirovna, A. Karimova</b>	
Agrosanoat klasterlarda tovar-moddiy zaxiralarni samaradorligini KPI orqali baholash uslubiyati .....	357
<b>Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich</b>	
Faol tadbirkorlar faoliyatida kambag'al oilalarni iqtisodiy-ijtimoiy holatini yaxshilash imkoniyatlari.....	362
<b>Salamov Ibrohim, Nazarova Maryam Sharifovna, Kazakova Zulayxo Saloxiddinovna, Jonibekov Faxriddin Beknazarovich, Kudratov Rizo Turdibayevich, Ulmasova Oygul Baxtiyorovna, Xamdama Nasiba Ablakulovna, Xudayberdiyeva Ma'rifat Umarovna</b>	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar strategiyasi tahlilining o'ziga xos xususiyatlari .....	369
<b>Tursunova Shaxnoza Farxod qizi</b>	
Процессы цифровизации АО “Hududgazta'minot” .....	373
<b>Хусанов Кахрамон Нишонович</b>	
O'zbekistonda aholi turmush darajasini oshirish yo'llari.....	378
<b>Abdullayeva Madina Kamilovna, Eldorbekov G'ofurbek Iskandarbek o'g'li</b>	
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik subyektlari uchun kredit tizimini takomillashtirish mexanizmi.....	381
<b>Bobayev Isroiljon Abdinabiyevich</b>	
Mamlakatga jalb qilingan xorijiy kapitalning tovarlar va xizmatlar importi salohiyatiga ta'sirini ekonometrik modellar bilan baholash.....	386
<b>Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li</b>	



O'zbekistonda bank xizmatlari raqobatbardoshligini baholash mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari.....	394
<b>Sh. Madraimov</b>	
Kapital bozorida sug'urta kompaniyalar institutsional investor sifatida .....	397
<b>Xasanova Lola Mamasharifovna</b>	
Yangi O'zbekiston strategiyasida institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish va ko'p funksiyali raqamlashtirishning ilmiy asoslari .....	400
<b>B. B. Berkinov</b>	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari orqali jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish mexanizmlari.....	409
<b>G'afurov Umidjon Bahodir o'g'li</b>	
Rivojlangan mamlakatlarda keksa fuqarolarning bandligini oshirish kam ta'minlangan aholi qatlamini qo'llab-quvvatlash usuli sifatida (Yaponiya tajribasi misolida).....	413
<b>Karimov Bekzodjon Iloxovich</b>	
Tashqi savdoni oshirishda boj-tarif siyosatini takomillashtirish mexanizmlari .....	420
<b>Pardayev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li</b>	
Финансы или корпоративные финансы .....	426
<b>Уринов Бобур Насиллоевич</b>	
In Ensuring Economic Development in the Country Green Economy and its Features .....	432
<b>Akhunova Shakhistakhon Nomonjanovna, Abdusattorova Mokhirabonu Abdugoppor kizi</b>	
Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari .....	437
<b>Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li</b>	
Сокращение уровня бедности в Узбекистане.....	443
<b>Амирджанова Ситора Суннат кизи</b>	
Paxtachilik sohasida ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirishning innovatsion yechimlari va uning foydaga ta'sirini baholash .....	448
<b>S. B. Inoyatov</b>	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlash amaliyotidagi muammolar va ularni barataraf etish yo'llari .....	453
<b>Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li</b>	
Mahalliy budjet daromadlarining nazariy va ilmiy asoslari .....	460
<b>O'lokulova Feruza Mansurovna</b>	
Kambag'allikni qisqartirish – aholi turmush farovonligini ta'minlashning muhim omili .....	463
<b>Usmanov Baxodir Baxtiyorovich</b>	
Raqamli marketingni rivojlantirish zaruriyati .....	469
<b>Xalmuxamedova Zebaxon Babaxanovna</b>	
Tijorat banklari o'rtasidagi raqobatni rivojlantirish orqali fond bozorida aksiyalar narxini barqarorligini ta'minlash istiqbollari .....	473
<b>M. Yuldosheva</b>	
Konchilik sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmlarining ilmiy-nazariy asoslari .....	480
<b>Kurbanova Mehriniso Nematjanovna</b>	
O'zbekistonda banklar moliyaviy xizmatlari va ular sifatining amaldagi holati tahlili .....	487
<b>Mirzayev Mirza Abdullayevich</b>	
Oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy samaradorlikning raqobatbardoshligini institutsional tahlil qilish mexanizmi.....	492
<b>Saydullayeva Saodat Abdumajidovna</b>	
Integratsiya sharoitida to'qimachilik sanoatining rivojlanishi .....	499
<b>Ziyayeva Muhtasar Mansurdjanovna</b>	
Auditorlik tekshiruvini tashkil etish va o'tkazish jarayonlarini takomillashtirish .....	503
<b>Karamatova Noiba Husnitdinovna</b>	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlari .....	510
<b>Mamatov Mamajan Axmadjonovich</b>	
Экономическое сознание и экономическое мышление: теоретический анализ.....	517
<b>Пардаев Мамаюнус Каршибаевич, Мухаммедов Мурод Мухаммедович</b>	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklari tomonidan qurilish korxonalarini kreditlashni takomillashtirish yo'llari .....	522
<b>Sultanov Baxram Begdullayevich</b>	



Роль искусственного интеллекта в современных технологиях медиаобразования в высших учебных заведениях.....	526
<b>Самигова Гуландом Абдужаббаровна</b>	
Talabalarga moliyaviy yordam dasturlari va ularning ta'lim sifatiga ta'siri .....	534
<b>Mirzayeva Muhlisa Ubaydullo qizi</b>	
Mintaqaviy investitsion jozibadorlik va investitsion siyosat: nazariy talqin .....	539
<b>Muminov Akmal Tulkunovich</b>	
Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida oliy ta'lim tizimining ta'siri .....	543
<b>Nasimov Adiz Azamat o'g'li, Baxtiyorova Jasmira Jasurovna, Axrorov Zarif Oripovich</b>	
Respublikada fermer xo'jaliklarga xizmat ko'rsatishni rivojlantirish va agroxizmatlar bozorini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari .....	548
<b>Shukurov Iloxom Safarboyevich</b>	
Turli mamlakatlarda oliy ta'limni moliyalashtirish yo'llari .....	555
<b>Umarova Moxigul Maxmayunus qizi</b>	
Dehqonchilikni innovatsion asosda rivojlantirishning xorijiy tajribasi.....	560
<b>Yuldashev G'iyos Turabekovich</b>	
Tijorat bank xizmat turlarini islomiy bank xizmatlari orqali rivojlantirish istiqbollari .....	564
<b>Bayjanova Gozsal Sarsengaliyevna</b>	
Qishloq xo'jaligi mahsulotini baholash va hisobga olishning uslubiy jihatlarini takomillashtirish .....	570
<b>Boltayev Abror Sayitmuradovich</b>	
Секреты интересного урока в начальной школе.....	577
<b>Гараева Олеся Владимировна</b>	
Iqtisodiyotni barqaror rivojlanishda yashil iqtisodiyotning o'rni.....	580
<b>Ibragimova Gulchehra Toxirovna</b>	
Mahsulot va xizmatlarni raqamli transformatsiyasini amalga oshirish algoritmi.....	584
<b>Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, Bobojonov Azizjon Babaxanovich, Abdurakhmonov Abdumalik Abdurashidovich</b>	
O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi mamlakatda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish vositasi sifatida.....	591
<b>Nabiyev Feruz Nurmurodovich</b>	



# VENCHUR KAPITALINING MOHIYATI VA O'ZBEKISTONDA VENCHUR TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI

**Tadjibayeva Nigora Gulomjonovna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Marketing" kafedrasida mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada vechur kapitalining mohiyati, o'ziga xos tomonlari, rivojlangan mamlakatlarning mazkur yo'nalishdagi tajribalari va O'zbekiston amaliyoti keng tahlil etilgan. Shuningdek, mamlakatimizda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida vechur kapitali shakllanishini 3 davrga bo'lib tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** vechur, vechur fondlari, vechur kapitali, vechur kapitalini shakllanish bosqichlari, milliy vechur fondi, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, sanoat kooperatsiyasi.

**Abstract:** This article analyzes in detail the essence of venture capital, its specific aspects, the experience of developed countries in this direction and the practice of Uzbekistan. Also, based on the legal documents adopted in our country, the formation of venture capital is divided into 3 periods.

**Key words:** venture capital, venture funds, venture capital, stages of venture capital formation, national venture fund, production modernization, industrial cooperation.

**Аннотация:** В данной статье подробно анализируется сущность венчурного капитала, его специфические аспекты, опыт развитых стран в этом направлении и практика Узбекистана. Также на основании принятых в нашей стране правовых документов формирование венчурного капитала делится на 3 периода.

**Ключевые слова:** венчурный капитал, венчурные фонды, венчурный капитал, этапы формирования венчурного капитала, национальный венчурный фонд, модернизация производства, промышленная кооперация.

## KIRISH

Jahonda globallashuv tendensiyalarining keskinlashuvi, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning murakkablashuvi hamda ilm sig'inkorligi yuqori bo'lgan tovar va xizmatlar diversifikatsiyasining kengayishi innovatsion jarayonlarni moliyalashtirishning turli xil muqobil variantlarini qo'llash tendensiyalarini kuchaytirmoqda. "Innovatsion salohiyatni oshirish bo'yicha jahonda yetakchi 10 ta mamlakat, ya'ni, Shveysariya, Niderlandiya, Shvetsiya, Buyuk Britaniya, Singapur, AQSH, Finlyandiya, Daniya, Germaniya va Irlandiyalar yiliga YAIMga nisbatan o'rtacha 2,5-4,0 foiz atrofida mablag'lar ajratmoqda" <sup>[1]</sup>. Bugungi kunda jahon bozorida raqobatning tobora kuchayib borishi sharoitida innovatsion faollik darajasini oshirishga vechur kapitalidan foydalanish dolzarb ahamiyatga ega bo'lmoqda.

O'zbekistonda iqtisodiyot sohalariga innovatsiyalarni keng joriy qilish, innovatsion faoliyat subyektlari, ayniqsa, sanoat ishlab chiqarishni rag'batlantirish, texnoparklar, transfer markazlari, innovatsion klasterlar, vechur tashkilotlar, biznes-inkubatorlar faoliyatini takomillashtirish yuzasidan keng qamrovli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, mamlakatda "...innovatsion salohiyat va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish uchun respublikada vechur jamg'armalari faoliyatini takomillashtirish orqali portfel investitsiyalar hajmini 2 barobarga oshirish" <sup>[2]</sup>, "...global innovatsion indeksda O'zbekiston Respublikasining o'rnini yaxshilash va 2030-yilga qadar reytingning TOP-50 mamlakatlari qatoriga kirish" <sup>[3]</sup> vazifalar belgilab berilgan. Bu borada milliy innovatsion salohiyatni baholash mexanizmini nazariy-uslubiy jihatdan takomillashtirish, innovatsion klasterlarni davlat-xususiy sherikchilik asosida samarali shakllantirish, xususiy sektor va hududlarning innovatsion faoliyatini moliyaviy vositalar asosida rag'batlantirish, ularni amalga oshirish mexanizmini samarali tashkil etish kabi yo'nalishlardagi tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.



## ADABIYOTLAR TAHLILI

Mamlakat innovatsion jarayonlar va venchur kapitalidan foydalanish darajasini oshirishning nazariy-uslubiy jihatlari xorij olimlari tomonidan muayyan darajada o'rganilgan. Jumladan, innovatsion jarayon o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar J.Shumpetter<sup>[4]</sup>, Z.Glenn, kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyatini rag'batlantirish mexanizmlari P.Drukker, S.Friman<sup>[5, 6]</sup>, milliy innovatsion tizimni shakllantirish muammolari B.Landvall, R.Nelson va boshqa olimlarning tadqiqotlarida o'rganilgan. S.Kortum, G.Stivenson, Dj.Timmons, U.Baygrev va boshqa bir qator olimlar esa iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishida yuqori risk darajasi bilan bog'liq bo'lgan venchur kapitali qo'yimlarini baholashning empirik tahlilini amalga oshirishgan.

Innovatsion jarayonlarni amalga oshirishning ilmiy-amaliy jihatlari o'rganish bilan bog'liq tadqiqot ishlari MDH mamlakatlaridagi qator olimlarning izlanishlarida ma'lum darajada tadqiq etilgan. Jumladan, innovatsion faoliyatni tahlil qilish va baholash N.Kondratev, V.Marsinkevich, I.Soboleva<sup>[7, 8]</sup>, ilmiy-texnik va tajriba-konstruktorlik ishlarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari B.Mochalov, L.Lopatnikov, J.Petrovskaya, L.Davidova, S.Markina, venchur kapitalining innovatsion jarayonlarga ta'sirini Yu.Ammosov, I.Rodionov, S.Yagudin, I.Komarova, M.Sabirov, E.Valeyev<sup>[9, 10]</sup> ilmiy izlanishlarida o'rganilgan.

O'zbekistonlik olimlar tomonidan mamlakat innovatsion faoliyatini rivojlantirish hamda undan foydalanish darajasini oshirishning umumiy jihatlari muayyan darajada o'rganilgan va ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar davom etmoqda. Jumladan, mamlakat innovatsion faoliyatini alohida tarmoq, soha va hududlar kesimida baholash hamda intellektual salohiyatni oshirish muammolari S.G'ulomov, Sh.Zaynutdinov, A.Vaxabov, N.Rasulov<sup>[11, 12]</sup> innovatsiyalarni investitsiyalash va iqtisodiy o'sishning sifat ko'rsatkichlari hamda innovatsion jarayon o'rtasidagi mutanosiblik R.Nurumbetov, F.Shakirova, D.Shadiyeva, innovatsiyalarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish N.Yo'ldoshev, Sh.Mirsaidova, B.Kamiljanov, milliy iqtisodiyot innovatsion jarayonlaridan samarali foydalanishning umumnazariy jihatlari B.Xodiyev, T.Jo'rayev, X.Abulqosimov, N.Maxmudovlarning tadqiqot ishlari bayon etilgan.

## ASOSIY QISM

Bugungi zamonaviy davlat faqat xom ashyo resurslari evaziga emas, balki innovatsiyalar va yangi texnologiyalar hisobiga rivojlanishi maqsadga muvofiq. Shundagina u xalqaro savdo sohasida yetakchilik qila oladi va jahon bozorida munosib o'rin egallashi mumkin.

Ilm-fan yutuqlarini keng qo'llagan holda iqtisodiyot, ijtimoiy va boshqa sohalarda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo'llash ko'pgina mamlakatlar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining ham dinamik rivojlanishining asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakat hayotining jadal rivojlanayotgan barcha sohalari davlatni jahon taraqqiyoti yetakchilari qatoriga tez va sifatli kira olishini ta'minlovchi zamonaviy innovatsion g'oyalari, ishlanmalar va texnologiyalar asosida olib boriladigan islohotlar bilan yaqin hamkorlik qilishni talab qiladi. Mamlakatning innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishi investitsiyalarni moliyalashtirishning yangi metodlarini qo'llashni talab etadi. Shunday metodlardan biri rivojlangan mamlakatlarda yetarlicha muvaffaqiyatli qo'llanilayotgan venchur kapitali hisobiga moliyalashtirish hisoblanadi.

1-davr (1992-2007-yillar). Venchur kapitali shakllanishi me'yoriy-huquqiy asoslarining yaratilish bosqichi

2-davr (2008-2016-yillar). Venchur kapitali shakllanishi me'yoriy-huquqiy asoslarining rivojlanish bosqichi

3-davr (2017-2023-yillar). Venchur kapitali shakllanishi me'yoriy-huquqiy asoslarining yetuklik bosqichi

1-rasm: O'zbekistonda venchur kapitali shakllanishining me'yoriy-huquqiy asoslari<sup>1</sup>

1 Tadqiqot davomida muallif tomonidan tuzilgan.



Fikrimizcha, respublikada venchur kapitali shakllanishini tahlil qilishimiz uchun mustaqillikdan keyingi davrda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning venchur kapitaliga qanday darajada bog'liqligini asos qilib olishimiz muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda venchur kapitali shakllanishida 1992-2023-yillar oralig'ida jami 46 ta qonun va qonun osti hujjatlar, xususan, 4 ta O'zbekiston Respublikasi qonuni, 14 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, 10 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori, 18 ta Vazirlar Mahkamasi Qarorlari qabul qilingan. Ushbu qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar venchur kapitali shakllanishiga bevosita va bilvosita bog'liq bo'lib, ularni shartli ravishda quyidagi 3 davrga bo'lib tahlil qilishimiz mumkin.

**1-davr (1992-2007-yillar).** Venchur kapitali shakllanishi me'yoriy-huquqiy asoslarining yaratilishi bosqichi.

Mamlakatimizda barcha sohalar kabi ilm-fan va innovatsiyalarni moliyalashtirish hamda qo'llab-quvvatlash mustaqilligimizning dastlabki yillaridan e'tibor qaratila boshlandi.

Ushbu davrda fan-texnika imkoniyatlarini kuchaytirish, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning dolzarb muammolarini hal etishda fanning ahamiyatini oshirish ham muhim tadqiqotlar va innovatsiya jarayonlari kengaytirilishini davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash maqsadida, ilmiy tadqiqot institutlarida va oliy o'quv yurtlarida xo'jalik shartnomalari asosida bajariladigan ilmiy tadqiqot ishlari, shuningdek, innovatsiya ishlari 1992-1995-yillarda qo'shimcha qiymatdan soliq to'lashdan ozod qilindi.

Ilmiy-texnika tadqiqotlari va ishlanmalarini huquqiy jihatdan himoya qilish, ularning raqobatbardoshligini oshirish, litsenziyalar va patentlarni sotish hajmini ko'paytirish, O'zbekiston olimlarining yutuqlarini chet ellarda keng reklama qilish choralari, hamda, O'zbekiston olimlarining ilg'or texnologiyalari va ilmiy ishlanmalari negizida qo'shma korxonalar venchur kompaniyalar, innovatsion dasturlar va loyihalarni yaratish ko'zda tutildi. Ushbu davrda qo'shma korxonalar, innovatsion loyihalar va dasturlar yaratildi, biroq venchur kompaniyalar tuzilishi amalga oshmadi.

**2-davr (2008-2016-yillar).** Venchur kapitali shakllanishi me'yoriy-huquqiy asoslarining rivojlanish bosqichi.

Ushbu davrda qabul qilingan farmon va qarorlar natijasida qator vazifalar bajarilishi belgilandi va amalga oshirildi.

Ichki tarmoq va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri yangi texnologiyalarni ishlab chiqish hamda ularni yirik va kichik korxonalarda joriy etish imkonini beradigan innovatsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash va amalga oshirish uchun venchur jamg'armalarini, shuningdek, infratuzilma obyektlarini tashkil etish belgilandi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash jarayonlarida ilmiy-amaliy tadqiqotlar hamda innovatsion ishlanmalarni ishlab chiqish, ularni joriy etishni rag'batlantirishning samarali mexanizmlarini yaratish, fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi yaqinroq aloqani ta'minlash, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va real iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari o'rtasida yaqin hamkorlik aloqalarini o'rnatish borasida respublikada juda katta ishlar amalga oshirildi.

O'rta muddatli istiqbolda innovatsion mahsulotlar va texnologiyalarni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksiga ko'ra 2008-2009-yillarda ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni venchur moliyalashtirishni rivojlantirish borasida O'zbekiston Respublikasi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi, Fanlar akademiyasi, Iqtisodiyot vazirligi tomonidan venchur kompaniyalar, fondlar, venchur fondlarni boshqaruvchi kompaniyalar, innovatsion korxonalar faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari tayyorlandi. Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, Oliy ta'lim vazirligi, Bank-moliya akademiyasi tomonidan venchur fondlari va kompaniyalari uchun malakali boshqaruvchi va ekspert kadrlarni tayyorlash borasida o'quv kurslari amalga oshirildi. Moliya vazirligi, Sug'urta kompaniyalari assotsiatsiyasi, "O'zbekinvest" MKK, "O'zagrosug'urta" AK, sug'urta kompaniyalari tomonidan venchur loyihalarini sug'urta qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqildi va uni amalga oshirish borasida venchur loyihalarini sug'urta qilish tartibi amalga oshirilishi belgilandi.

Shuningdek, ushbu bosqichda 2014-2016-yillarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori bilan O'zbekiston Respublikasiga donor davlatlar, xalqaro va xorijiy davlat hamda nodavlat notijorat tashkilotlarining bepul (beg'araz) texnik yordami (grantlari) mablag'lari hisobiga iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni rivojlantirish bo'yicha ustuvor loyihalarni amalga oshirish uchun loyiha summasi 100 ming dollar bo'lgan venchur kapitalni shakllantirish va innovatsion risklarni sug'urtalash sektorini rivojlantirish orqali yuqori texnologiyali ishlab chiqarish faoliyatiga investitsiya resurslarini joylashtirish vazifalari belgilab qo'yildi.


**3-davr (2017-2023-yillar).** Venchur kapitali shakllanishi me'yoriy-huquqiy asoslarining yetuklik bosqichi.

Ushbu davrda hukumat tomonidan qabul qilingan juda ko'plab me'yoriy-huquqiy hujjatlar venchur kapitalining shakllanishida va uning institutsional asoslarini belgilab berishda bevosita xizmat qiladi. Xususan, ushbu qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar orqali innovatsion g'oyalar, startaplar, venchur loyihalarni moliyalashtirish tizimini shakllantirish va takomillashtirishga, ilmiy-tadqiqotlar natijasini ishlab chiqarishga tatbiq etish sur'atlarini oshirishga, investitsiyalarni, xususan xorijiy sarmoyalarni samarali jalb qilish maqsadida investitsion va boshqaruv kompaniyalarini tashkil qilish amaliyotini kengaytirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan tadbir-

korlik startap loyihalarini moliyalashtirishda hissassi bo'lgan venchur kompaniyalarini yagona ijtimoiy to'lovdan tashqari barcha turdagi soliqlar va majburiy to'lovlardan ozod etilishi belgilandi.

Startap loyihalarini saralash va moliyalashtirish uchun tanlab olish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi 133-sonli "Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori 2-ilovasiga muvofiq tanlovlar tashkil etildi. Yangicha tartib yo'lga qo'yilishi natijasida 2019-2022-yillar davomida umumiy qiymati 114,0 mlrd. so'mlik 176 ta startap loyiha moliyalashtirilgan. Taqqoslash uchun aytish lozimki, 2019-yilga qadar startap loyihalarini davlat granti hisobiga moliyalashtirish tartibi bo'lmagan <sup>[13]</sup>.

2017-yil holatiga respublika hududlarida ilmiy ishlanmalar natijalarini amaliyotga joriy qilish, mavjud ilmiy-texnik va innovatsion salohiyatidan samarali foydalanish bo'yicha yagona maydonlar mavjud bo'lmagan. Innovatsion infratuzilmalar respublikada 2018-yildan boshlab faoliyat yuritishni boshlagan (2-rasm).



2-rasm: Respublikada mavjud innovatsion infratuzilmalar soni<sup>2</sup>

Yuqori texnologiyalarni rivojlantirish, ilmiy-texnologik va innovatsiya tadbirkorlikning barqaror rivojlanishini ta'minlash, kichik innovatsiya korxonalarini tashkil etish, milliy va xorijiy bozorlarda raqobatdosh, ilmiy-hajmdor mahsulotlar ishlab chiqarishni va yetkazib berishni yo'lga qo'yish uchun qulay muhit shakllantirish maqsadida so'nggi 5 yil ichida respublikamizda 19 ta innovatsion infratuzilmalar (texnopark, biznes-inkubator, biznes-akselerator, kovorking markazi kabi) tashkil etildi.

Shu bilan birgalikda, vazirlik tashabbusi bilan startap loyihalarni moddiy qo'llab-quvvatlash maqsadida 3 ta investitsiya kompaniyasi, 6 ta venchur fondi va 1 ta boshqaruv kompaniyasi faoliyati yo'lga qo'yilgan. "Astron" venchur fondi, "UzVC" Milliy venchur fondi hamda "UzCARD Ventures" MCHJ maqsadli jamg'armalari shular jumlasidandir.

"UzVC" milliy venchur fond O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-noyabrdagi 684-sonli "UzVC" milliy venchur fondi faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga ko'ra mas'uliyati cheklangan jamiyati shaklida tashkil etildi. Jamiyat ustav kapitalidagi mablag'larni ishonchli boshqaruvga berish bo'yicha o'tkazilgan tanlov natijalariga ko'ra, Buyuk Britaniyaning "Sturgeon Capital" kompaniyasi g'olib deb topilib, mazkur kompaniya tomonidan 25,0 mln. AQSH dollari miqdorida sarmoya kiritishi ko'zda tutilgan, hozirda 1,9 mln. AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritilgan <sup>[13]</sup>.

O'zbekistonda UzVCA (O'zbekiston venchur investitsiyalash assotsiatsiyasi)ning tashkil etilishi muhim voqea bo'ldi. Uning faoliyati venchur kapitalni mahalliy startap loyihalarga jalb qilish va rag'batlantirish, mam-lakatdagi venchur investitsiyalar bozori bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish, venchur investitsiya sohasida mutaxassislarini tayyorlash va qayta tayyorlashga qaratilgan.

O'zbekistonda venchur kapitali shakllanishini qo'llab-quvvatlovchi institutlarni huquqiy, infratuzilma va norasmiy institutlariga bo'lib o'rganishimiz mumkin. Jumladan, hozirgi kunda huquqiy institutlar qatoriga O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Kambag'al-

2 O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.



likni qisqartirish va bandlik vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Soliq qo'mitasi, Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi, Innovatsion rivojlanish agentligi va shu kabilarni kiritish mumkin. Infratuzilma institutlariga banklar, sug'urta tashkilotlari, kredit uyushmalari, fond birjasi, sudlar, advokatlik firmalari, tashish, lizing, reklama, injiniring, aloqa va boshqa xizmatlarni ko'rsatuvchi bozor infratuzilmasi institutlarini kiritish mumkin. Norasmiy institutlar: aholi urf-odatlar, qadriyatlar, milliy mentalitet kabilarni kiritish mumkin. Chunki ular norasmiy sektor sifatida milliy iqtisodiyotning amal qilishida o'z ta'sirini ko'rsatadi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, respublikada amalga oshirilayotgan institutsional o'zgarishlar natijasida venchur kapitalining shakllanishi va rivojlanishi muhim o'rin tutadi. Bu borada respublikada qabul qilingan konsepsiya va strategiyalarda venchur kapitalining mustaqil institut bo'lib shakllanishida xizmat qiladi. Xususan, Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga ko'ra innovatsion ishlanmalar va startap loyihalarni moliyalashtirish maqsadida 2021-yilda 2 ta, 2025-yilda 10 ta venchur jamg'armalari tashkil qilinishi belgilangan<sup>[14]</sup>. Mamlakatimizda oxirgi 4-yilda innovatsion faoliyatni moliyalashtirish bo'yicha maxsus institutlar (innovatsion jamg'armalar, venchur tashkilotlar va boshqalar) soni 28 taga yetkazildi. 2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirishning maqsadli ko'rsatkichlari Innovatsion faoliyat infratuzilma subyektlari (texnologik parklar, texnologiyalar transferi markazlari, innovatsion klasterlar, venchur fondlar, innovatsiya markazlari, biznes-inkubatorlar va akselerator) sonini 2022-yildagi 25 tadan, 2023-yilda 45 taga, 2024-yilda 55 taga, 2025-yilda 65 taga, 2026-yilda 75 taga yetkazilishi belgilangan.

Ushbu belgilangan vazifalar milliy iqtisodiyotga innovatsion mahsulotlar va yechimlarni ishlab chiqib, joriy qilishning zamonaviy "zanjiri" va yagona tizimini yaratish orqali mamlakatda innovatsiyalar va texnologiyalar sohasining investitsion jozibadorligini oshirish, manfaatdorlik va raqobat muhitini yaratgan holda xorijiy investitsiyalar va texnik-ko'mak grantlari, shuningdek, venchur tashkilotlari hamda tegishli moliya bozorlarining turli vositalari orqali moliyalashtirish hajmini oshirishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://www.vestifinance.ru/articles/104063>; [https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/wipo\\_pub\\_gii\\_2018-chapter3.pdf](https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/wipo_pub_gii_2018-chapter3.pdf).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>.
4. Schumpeter J. Theorie der wirtschaftlichen Entwicklung – Berlin: Duncker & Humblot, 1912.
5. Drucker P. Innovation and Entrepreneurship. Practice and Principles. – London: Heinemann, 1984.
6. Freeman C. Technology and Economic Performance: Lessons from Japan. – London: Pinter Publishers, 1987.
7. Кондратьев Н. Большие циклы конъюнктуры // Вопросы конъюнктуры. Том 1, Выпуск 1, 1925.
8. Марцинкевич В.И., Соболева И.В. Экономика человека: Учеб.пособие для вузов. М.: Аспект Пресс, 1995. –с.51.
9. Ягудин С. Ю. Венчурное предпринимательство. Франчайзинг. – СПб.: Питер, 2011. – 256 С.
10. Сабиров М.Р. Венчурный капитал, как фактор инновационной модернизации экономики.// Вестник экономики, права и социологии, 2012, № 2. С. 76-79.
11. G'ulomov S.S. Innovatsion iqtisodiyotda yangi terminologiya: "aqli ta'lim". // Ilm-fan va innovatsion rivojlanish. –№3. 2018. –17-22-b.
12. Zaynutdinov Sh.N. Innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. 2011. № 1.
13. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining 2018-2022-yillardagi asosiy faoliyat natijalari. Toshkent – "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi" – 2022. – B. 33.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5073447>.

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 2**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.